

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2020- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

8 762



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4 375



Oilaviy korxonona

157



Unitar korxonona

7 069



Xususiy korxonona

26




Aksiyadorlik jamiyati

284




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



 o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

25
aksiyadorlik
jamiyati

145
unitar korxonalar

264
boshqalar

4 140
oilaviy korxonalar

6 783
xususiy korxonalar

8 497
mas'uliyati
cheklangan jamiyat

19 854
tijorat korxonalari

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlikda)




■ o'tgan yilga nisbatan % da

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi, % da)



2020- yil yanvar-iyun oylarida 4 984 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 209 ta, xususiy korxonalar – 691 ta, oilaviy korxonalar – 2 905 ta, muassasalar – 38 ta va boshqalar – 141 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 4 375 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 359 taga yoki 4,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 140 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 143 taga yoki 4,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 905 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 628 taga yoki 10,5 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 8 762 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 815 taga yoki 126,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 497 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 649 taga yoki 124,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 209 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 405 tani tashkil etib, ulardan 387 tasi yoki 95,6 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 121 taga yoki 145,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 45 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	56	60	97	266	387
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6	10	23	74	97
Sanoat	30	34	38	71	105
Qurilish	2	1	4	14	21
Savdo	4	5	19	68	116
Tashish va saqlash	5	4	5	7	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	1	13	18
Axborot va aloqa	2	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	3	4
Boshqa turlar	4	4	5	15	18


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 733	4 243	5 229	6 848	8 497
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	298	322	548	699	1 063
Sanoat	559	688	826	1 150	1 324
Qurilish	572	702	867	1 130	1 474
Savdo	1 120	1 331	1 552	2 091	2 624
Tashish va saqlash	382	471	510	563	612
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	116	165	195	269	332
Axborot va aloqa	62	69	71	94	105
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	34	34	60	83	96
Boshqa turlar	590	461	600	769	867


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	570	698	997	4 140
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	77	91	97	1 397
Sanoat	156	167	270	1 146
Qurilish	8	7	11	43
Savdo	101	157	240	910
Tashish va saqlash	9	13	11	23
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	194	232	312	457
Axborot va aloqa	x	2	3	23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	5	5	9
Boshqa turlar	23	24	48	132

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Surxondaryo viloyati	387	127	260
Termiz sh.	183	32	151
tumanlar:			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	20	6	14
Bandixon	x	x	x
Boysun	6	5	1
Muzrabot	15	6	9
Denov	15	7	8
Jarqo'rg'on	12	8	4
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	14	9	5
Termiz	38	13	25
Uzun	29	16	13
Sherobod	14	7	7
Sho'rchi	13	6	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahrida 183 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 47,3 %), Termiz 38 ta (9,8 %), Uzun 29 ta (7,5 %), Angor 20 ta (5,2 %), Denov va Muzrabot 15 tadan (3,9 % dan), Sariosiyo va Sherobod 14 tadan (3,6 % dan), Qumqo'rg'on va Sho'rchi 13 tadan (3,4 % dan) hamda Jarqo'rg'on 12 ta (3,1 %) tumanlarida tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,0 %), Denov (11,4 %), Jarqo'rg'on (7,8 %), Qumqo'rg'on (7,6 %), Sho'rchi (6,9 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,5 %), Qiziriq (5,3 %), Sariosiyo (5,1 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,4 %) hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qumqo'rg'on (12,6 %), Termiz sh. (10,1 %), Denov (9,0 %), Sho'rchi (8,0 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qiziriq (7,7 %), Sherobod (7,1 %), Boysun (6,1 %), Uzun (5,7 %), Termiz (5,6 %), Oltinsoy (5,3 %), Sariosiyo (4,1 %), Muzrabot (3,7 %), Angor (3,7 %) va Bandixon (3,4 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,3 %), Denov (9,6 %), Termiz (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Boysun (5,6 %), Sherobod (5,6 %), Qumqo'rg'on (5,5 %), Qiziriq (5,5 %), Sho'rchi (5,1 %), Muzrabot (4,4 %), Angor (4,3 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,7 %), Oltinsoy (2,5 %) va Bandixon (1,2 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatimizdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (15,0 %), Sherobod (9,6 %), Qiziriq (8,9 %), Boysun (8,6 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Denov (7,6 %), Uzun (6,7 %), Oltinsoy (6,7 %), Sho'rchi (6,6 %), Termiz (5,2 %), Termiz sh. (4,4 %), Sariosiyo (3,9 %), Muzrabot (3,2 %), Angor (2,9 %) va Bandixon (2,8 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.